

“HAYRAT UL-ABROR” VA “MAXZAN UL-ASROR” DOSTONLARINING QIYOSIY TAHLILI

Shabonova Zarnigor Mirjon qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti 2- bosqich talabasi.

shabbonovazarnigor@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” va Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostonlarining tuzilish jihatlaridagi o’xhash va farqli jihatlari o’rganildi.

Kalit so‘zlar: maqolat, hikoyat, boblar, qiyoslash, o’xhashlik, farqlilik.

ABSTRACT

In this article, Alisher Navoi Similarities and differences in the structural aspects of “Hayrat ul- abror” and Nizami Ganjavi’s epics “Makhzan ul-asrar” were studied.

Keywords: article, story, chapters, comparison, similarity, difference.

Xamsanavislik an’anasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, barcha xamsanavis ijodkorlar o‘zlarining xamsalarini pand-nasihat ruhi yo‘g‘rilgan doston bilan boshlashni an’ana deb bilganlar va shunga amal qilganlar. Alisher Navoiy ham o‘zining “Hayrat ul-abror” dostonini Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostoniga javob tariqasida yozgan bo‘lib, an’anani davom ettirgan. “Maxzan ul-asror” dostoni 2264 bayt (4528 misra) dan iborat bo‘lib, 59 bob, 18 muqaddima, 20 maqolat, 20 hikoyat va xotimadan iborat. “Hayrat ul-abror” dostoni esa, 3988 bayt (7976 misra), 63 bob, 21 bob muqaddima, 20 maqolat, 20 hikoyat va 2 xotima bobdan iborat. Endi dostonlarning boblar bo‘yicha o’xhash va farqli jihatlariga e’tibor qaratsak. O’xhash jihatlari: Har ikki doston ham basmala bobdan boshlanadi. Shunday bo‘lsa, Navoiy bu bobda ham falsafiy jihatdan chuqurroq yondashib, basmala so‘zini arab alifbosidagi harflarning ma’nosini izohlagan holda keltirib o‘tadi. “Bismillah”dagi har bir harfga ikki toifa – “ahli qabul” (qabul etganlar) va “ahli rad” (inkor qilganlar) uchun alohida-alohida ma’no yuklaydi.¹ Undan keyin hamd bob, munojot boblar “Hayrat ul- abror”da (4ta), “Maxzan ul-asror”da (2 ta), na’t boblar Navoiyda (5 ta), Nizomiyda (4 ta), so‘z ta’rifi, ko‘ngil ta’rifi kabi boblar ikki ijodkorda ham uchraydi. Yana ijodkorlardagi o’xhashlik har ikki dostonda ham 20 maqolat va unga ilova qilingan 20 hikoyat

¹ Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov “Navoiyshunoslik” darslik. “TAMADDUN”, Toshkent: 2019 73-bet.

mavjudligi. Farqli jihatlari: Navoiy salaflariga bag‘ishlangan boblar kiritgan, yana Navoiyda hayratlar (3 ta) deb nomlangan boblar ham uchraydi, Nizomiy esa, bu boblarni xilqat (2 ta) deb nomlagan. Navoiyda muqaddima qism 21 bob, Nizomiyda 18 bob. Navoiyda asosiy qism 22-bob maqolatlar bilan boshlansa, Nizomiyda 19-bobdan boshlanadi. Navoiyda maqolatlardan keyin yakunlovchi 2 ta xotima bob ham keltiriladi.

“Hayrat ul-abror”dagi maqolatlarni akademik Botirxon Valixo‘jayev mavzu jihatdan yana ikkiga bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bulardan birinchisi insonning komilligiga xizmat qiluvchi, ma’naviy-ma’rifiy fazilatlar bo‘lib,adolat (3-maqolat), karam-saxovat (5-maqolat), adab (6-maqolat), sabr-qanoat (7maqolat), vafo (8-maqolat), haqiqiy oshiq (9-maqolat), rostgo‘ylik (10-maqolat), ilm-ma’rifat (11-maqolat), odamlarga nafi tegadigan kishilar (13-maqolat) va ikkinchisi hazrati insonga dog‘ tushuradigan adolatsizlik, riyokorlik (4maqolat), johillik (15-maqolat), manmanlik (16- hikoyat) va boshqa yomon hislatlar.¹

Har ikki dostondagi maqolat va hikoyatlarda keltirilgan joy nomlarining farqlanishi: “Maxzan ul-asrorda” Yaman, Hindiston, Bobil, Damashq, Marv, Ganja va Iroq keltirilgan bo‘lsa, “Hayrat ul-abror”da Hirot , Fors, Chin, Hind, Shom, Misr, Xorazm, Bag‘dod,Yaman, Samarcand kabi shaharlarning nomi keltirilgan.

“Maxzan ul-asror”va “Hayrat ul-abror” dostonlaridagi o‘xshash syujetli maqolat va hikoyatlar. Bilamizki, Navoiy bu dostonni Nizomiy dostoniga javob tariqasida yozgan. Shuning uchun ham ba’zi maqolat va hikoyatlarda o‘zaro o‘xshashlik mavjud. Navoiy bu bilan o‘z salafiga hurmat ko‘rsatib, uning g‘oyalarini yuksaltirib, takomillashtirishga harakat qilgan. Masalan:Nizomiyda “Kimsasiz kampir va Sulton Sanjar” hikoyati, Navoiyda “Bahrom” hikoyati, Nizomiyda “G‘ishtchi chol” hikoyati, Navoiyda “Hotami Toy” hikoyati, Nizomiyda “Sayyod uning iti va tulki hikoyati” Navoiyda “Sher bilan Durroj” hikoyatlari o‘zaro bir xil syujetga ega.Yoki bo‘lmasam, “Hayrat ul -abror”ning “Jaholat mayi” nomli 15-maqolati va “Maxzan ul-asror”ning “G‘aflatga malomat yog‘dirish” nomli 14-maqolati g‘oyaviy –badiiy jihatdan o‘zaro hamohangdir.

Yana bir jihatni Navoiy maqolat va hikoyatlarning turli toifa guruhlariga mansub ekanligidir. Jumladan podshohlar (Iskandar -XIV maqolat, Anushervoni odil- VI maqolat, Sulton Muhammad Xorazmshoh- XI maqolat,Shohi G‘oziy-III maqolat, Bahrom –XIX maqolat), tasavvuf ahli (Ibrohim Adham-II maqolat, Boyazid Bistomiy-I maqolat, Shayx Iroqiy-IX maqolat, Imom Faxr Roziy-XI maqolat, Xoja Muhammad

¹ Botirxon Valixo‘jayev “Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (Davri, zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi)” Uchinchi qism.

Porso va Xoja Abu Nasr-XX maqolat), xorkash (tikon teruvchi), dehqon va oddiy fuqaro kabi toifalar.

Ikki dostonning qiyosiy tahlili jarayonidan ham ko‘rinib turibdiki, hazrat Navoiy badiiyati har tomanlama mukammal hisoblanadi.Nega degan-da yuqorida ko‘rganimizdek, boblar bo‘yicha ham, obrazlar tasnifi bo‘yicha ham Navoiy chuqurroq va falsafiyroq mushohada yuritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Hayrat ul-aror” dostoni. G‘afur G‘ulom nashriyoti. Toshkent:. 2018.
2. Nizomiy Ganjaviy “Maxzan ul-asror” “Kamalak”, 2016 Jamol Kamol tarjimasi.
3. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov “Navoiyshunoslik” darslik. “TAMADDUN” Toshkent. 2019.
4. Botirxon Valixo‘jayev “Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (Davri,zamondoshlari, hayoti, faoliyati, merosi)” Uchinchi qism.